

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI HUSNIXATGA O'RGGATISHDA O'QUVCHILARNING YOSH VA INDIVIDUAL XUSUSIATLARI INOBATGA OLİSH

*Qo'qon Universiteti boshlang'ich ta'limgan qurashidagi o'zgarishlar
talabasi Shokirova Madina*

*Ilmiy maslahatchi Qo'qon Universiteti "Pedagogika va psixologiya"
kafedrasiga o'qituvchisi Abdullayeva Vazira Qur'onovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyoda ta'limgan jarayonidagi o'zgarishlar, yangicha yondashuvlar, savod chiqarishda darslik va o'quv qurollarining takomillashuvi yurtimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini chiqarishda alifbe darsliklarning o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogika, ta'limgan jarayoni, pedagogik yondashuv, husnixat, husnixat metodlari, husnixat tamoyillari, o'qitish, usuli savtiya.

Kirish:

Har bir davlatning ravnaqi va salohiyati yoshlarning intelektual bilim malakasiga asoslanadi. Bu borada ta'limgan tizimining o'ziga xos bo'lga ta'siri mavjud. Bugungi kunda yurtimizda yoshlarni bilimli va keng dunyoqarshga ega bo'lib voyaga yetishishida ta'limgan tizimidagi rivojlanishlarni alohida e'tirof etish mumkin.

XIX asr boshlarida ma'rifatparvar jinkuyar shoir Abdurauf Fitrat ta'limgan tarbiya haqida "Hayot yo'lida birinchi masala — maktab masalasi" degan edi.

Umumta'limgan maktabalarining biirinchi sinf o'quvchilarini savodxonligini chiqarishda husnixatni o'rgatish engmuhim omil hisoblanadi.

Inson o'z fikrini boshqa kishilarga og'zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu ikki shaklining o'xshash va farqli tomonlari mavjud bo'lib, ular o'z o'rnida afzalliklarga ega. Og'zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshitilish uchun mo'jallanadi. U kishilaming nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog'och, teri, metall, qog'oz kabilarga ko'rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo'yiladi. Yozuv kishilaming o'zaro fikr almashishi va bilimlami egallashning qudratli vositasi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarini husnixatga o'rgatish ehtiyoji yuqoridagi talablar asosida yuzaga keladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarini husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini, o'qitish usullarini, yozuviga o'rgatishning gigiyenik shartlarini, o'quvchilarining yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish, kamchiliklarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur.

Yozma nutq avlodlami bir-biriga bog‘laydi, uzoq davrlar mobaynida saqlanadi. Yozuv tufayli kishilar fikri, insoniyat qo’lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi. Boshlang’ich sinflarda o‘quvchilarni husnixatga o‘rgatish ehtiyoji yuqoridagi talablar asosida yuzaga keladi. Boshlang’ich sinflarda o ‘quvchilarni husnixat bilan yozishga o ‘rgatish metodikasi ularda aniq , chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini, o‘qitish usullarini, yozuviga o‘rgatishning gigiyenik shartlarini, o‘quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish, kamchiliklarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur. Mazkur ilmiy tezisda boshlang’ich sinflarni yozam nutqini shakllantirishda metodik tamoyillarning muhimligi va undagi yondsshuvlarning ahamiyatli ekanligini tahlil qilishni maqsad qilib qo ‘yildi.

Asosiy qism

Boshlang’ich sinflarning savodxonligini oshirishda husnixat darslarining ahmiyati juda kattadir. Husnixat darslarini tashkil qilish umumta‘lim maktablarining 1-4-sinflarida o‘qtilishini qamrab oladi. Husnixat darslari o‘quvchilarning yozma nutqini shakllantirish asosan harflarning grafikasini yozilishi o‘quv yilining 1-yarim yillikning 31 dekabrigacha o‘rgatiladi.

Boshlang’ich sinflarining 1-sinf o‘quvchilari husnixat darslarida o‘quvchilarga yozish ko ‘nikmalarini shakllantirishda husnixat o ‘rgatish metod va tamoyillarning alohida ahamiyati mavjud.

Husnixat va uni o‘rgatish metodikasi fani o‘z oldiga quyidagi vazifalami qo‘yadi:

- talabalarga chiroyli yozuv haqida nazariy bilim berish;
- o‘z dastxatlari ustida ishslash yuzasidan malakalar hosil qilish;
- boshlang’ich sinflarda husnixat darslarini rejalashtirish va tashkil etishga o‘rgatish;
- boshlang’ich sinflar uchun husnixat materiallarini tanlay olish tamoyillari bilan tanishtirish.

Boshlang’ich sinf o‘qivchilariga husnixat bilan yozishni tashkil qilish o‘quvchilarda mehnat madaniyatini tarbiyalaydi.

Topshiriqlarni toza, aniq va madaniyat bilan bajarish ko‘nikmasini hosil qiladi. O‘quvchilarning dastxatga pala-partish va bee’tibor munosabatda bo‘lish o‘quvchilaming imloviy savodsizligini keltirib chiqaradi.

O‘quvchilarni husnixat bilan to’g’ri yozish ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib turli rasmiy hujjatlarni yuritishda kishilar unga ehtiyoj sezadi .

Boshlang’ich sinf o‘quvchilarining mukammal yozuv ko‘nikmalrini shakllantirishda husnixat o‘rgatish meodlari bilan birga tamoyillarning ahamiyatini alohida inobatga olish kerak. Bo‘lajak boshlang’ich o‘qituvchilari oily ta ‘limda “Husnixat o‘qitish metodikasi” fanlarini joriy qilinishi boshlangich sinfning 1-sinf

o‘quvchilarini yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishga yaqindan ko‘mak berish maqsadida bir qator metod va tamoyillar haqida bilim beriladiki, 1-sinf o‘quvchilari yozuv haqida mukammal bilimga ega bo‘lmog ‘ini tashkil qiladi.

Husnixat o‘rgatish yozuvni shakllantirishga ko‘mak beruvchi metodlar mavjud.

“Metod” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, degan ma‘noni bildiradi. Husnixat darslarida metodlardan foydalanish eng yaxshi natija beradi.

Quyida metodlarni ko‘rib chiqish mumkin:

1. Chiziqli usul. 2. Genetik usul 3. Namunaga qarab yozish usuli. 4. Namunaga qarab ko‘chirish usuli. 5. Nusxa ko‘chirish usuli. 6. Tasawur orqali yozish usuli. 7. Ritmik usul(sanoq-ohang) 8.Harf shakllarini tahlil qilish usuli 9. Yozuv malakasini ongli o‘zlashtirish usuli 10.Qo‘1 harakatini mashq qildirish usuli. Ushbu metodlarning har birining o‘quvchining yozuv ko‘nikmasini shakllanishiga yaqindan ko‘mak beradi.¹

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishda nafaqat metodlar balki o‘qituvchi tomonidan yondqshuvlarning o‘rni ham muhimdir.

Tamoyillar – biror-bir ta‘limot, dunyoqarashning asosiy, birlamchi qoidasi, ustuvor g‘oyalari, amaliy faoliyatning asosiy yo‘nalishi. Shuningdek, insonning borliqqa munosabati, uning xatti-harakati va faoliyati me’yorlarini belgilovchi ichki omil ham tamoyil hisoblanadi.²

Hozirgi kunda boshlang‘ich sinflarga husnixat o‘rgatishda o‘qituvchilar quyidagi tamoyillar asosida darslarni tashkil qilmoqda. Husnixat darslarida quyidagi tamoyillardan foydalanilgan.

1.Onglilik tamoyili. 2. Genetik tamoyil. 3. Takrorlash tamoyili. 4.Ko‘rgazmalilik tamoyili. 5. Bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili. 6. Yozuvga o‘rgatishning o‘qishga o‘rgatish bilan bir paytda amalga oshirish tamoyili. 7. Chiroyli yozuvning imlo bilan bog‘liqlik tamoyili. 8. Savodli yozuvning grafik bilimlar bilan bog‘liqlik tamoyili.

Yuqoridagi tamoyillarning barchasi o‘quvchilarni savodxonligini chiqarishda juda muhim. Biroq husnixat darslarida o‘qituvchilar darsda 30 nafar o‘quvchi ta‘lim oladigan bo‘lsa barchasiga birdek e‘tibor qaratish murakkablikni tashkil qiladi.

O‘quvchilarni ayniqsa, yozuv ko‘nimasini shakllantish juda murakkab jarayondir. Shuning uchun ushbu ilmiy maqola orqali husnixat o‘rgatish tmoyillairning o‘quvchilarning yozuv malakalarini shakllanishida qay darajada afzallik jihatini o‘rganib chiqildi.

Husnixat darslarida yuqoridagi tamoyillarni afzallik darajalarini o‘rganish maqsadida kuzatish va tahlil pedagogik metodlar asosida o‘rganish olib borildi.

¹ Husnixat va uni o‘qitish metodikasi,”Idtisod -Moliya” nashriyoti, T,2021, B-30

² https://www.google.com/search?q=tamoyil+nima&oq=tamoyil&gs_lcp=EgZjaHJvbW

Kuzatish metodi asosida ta'lim jarayonida bevosita yuqoridagi tamoillar bilan birga yangi tamoyillar muhimligiga amin bo 'lindi.

Husnixat darslarini tashkil qilishda tashkil qigan tamoyillar bilan birga ota-onal bilan hamkorlik tamoyillari kiritish ahamiyatlidir.

Mazkur tamoyini bevosita bola yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyi bilan birgalikda olib borish muhimligini ko'rish mumkin.

Ota-onalar bilan hamkorlik tamoyi asosan inkluziv ta'lim oladigan o'quvchilarga juda qulay hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim — barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqlilagini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir. Bolalarning qobiliyatlaridan va holatidan qat'i nazar ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak.

Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim mакtablarining katta bo'lмаган qismlari sifatida faoliyat yuritadi.

Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimda o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi.

Shuningdek ularning o'z oilasidan uzoqda bo'lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda

alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda. Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integrasiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir.

Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejaliari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zları xohlagan mакtabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi.³

Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lган. Demak, uning o'qishi

uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart. Inklyuziv ta'limda maktabdagijtimoiy - jismoniy sharoit ham katta o'rinn tutadi.

³ F.Turaboyeva.F. INKLYUZIV TA'LIM HAQIDA TUSHUNCHА, "Ta'lim fidoyiları" jurnallari, Researchbibi(IF):6,2,ISSN: 2181-2160

Bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo'lgan iternatlarga joylashtirish ularning uyi,oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to'sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan,ota-onada mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oilatarbiyaning bosh markazidir. Inklyuziv ta'lim ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning foydasi barcha bolalarga tegadi. Inklyuziv ta'lim kansitishlarni oldini olishga yordam beradi. Jamiyatda nogironlarga nisbatan yanglish fikr va munosabat juda yuqoridadir. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularni yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim tarbiya berilishi bunga sababa bo'lishi mumkin. Bunday munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta'lim tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o'zları singari bola ekanliklarni anglab, kasitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi. Bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri, yani ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan bog'liq, muhim vazifalar va tizimdagagi holat xususidagi masaladir.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, barcha sohalarda bo'lgani kabi, bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida ham chuqur islohotlar va o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib husnixat darslariga ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash tamoyilini kiritilishi inkuliziv ta'lim xos xususiyati mavjud bor o'quvchilarga yaqinda yordam beradi.

Ushbu illmiy maqola kelrilgan mazkur fikr-mulohazalarimizni tahlil qilinganida ijtimoiy hayoda o'quvchi savodxonligini shakllanishida oiladagi muhitnig naqadar ahamiyatli ekanligini isbotlandi. Kuzatish jarayonida o'quvchilar maktabdan uyiga borganlarida oilada ota - onasi yoki aka-opasi bilan darslarni takrorlash va mashq qilish asosiga qurilganligi aniqlandi.

Xulosa. Yurtimiz bolajon davlat, dunyo hamjamiyatida bu borada yetarli yuqori mavqega egadir. Bu borada ta'lim tizimiga katta e'tibor berishini alohida e'tirof qilish mumkin. Yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjalarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2021-yil 12-oktabr, 638-soni qaroriga ko'ra, qaroraning 4-bandida maktabda o'quvchilar ta'lim jarayoniga moslashish darajasiga qarab boshqa (sog'lom) bolalar bilan bir qatorda maktabga qatnab muayyan sinfning o'quv rejasiga mos keladigan o'quv dasturlari doirasida tahsil oladi, deb belgilab qo'yilgan.

Mazkur qarorda maktabga qatnab o‘qish imkoniyati bo‘lmagan o‘quvchilarga ta’lim berish o‘quv rejali va o‘quv dasturlariga muvofiq ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan kelishilgan tavsiyaga muvofiq zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni masofadan turib yoki uyda yakka tartibda ta’lim berish orqali amalga oshiriladi.

Imkoniyati cheklangan bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, uning ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshligidan ilm olishga rag‘batlantirishda oila ishtiroki muhim. Shu sababli inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalarning ahamiyati katta. Alovida ehtiyojlari mavjud bolalarning ota-onalari farzandlari jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lish huquqiga ega ekanini tushunishlari kerak. Ota-onalar oilada sog‘lom muhitni va farzandlari orasida tenglik muhitini yaratib berishlari, imkoniyati chegaralangan farzandlariga ta’lim olish jarayonida ko‘maklashishlari juda muhim. Buning uchun, doimiy ravishda mакtab jamoasi bilan aloqada bo‘lish, bolaning tengdoshlari orasida moslashib ketishi va o‘zlashtirish darajasini kuzatib borish zarur.

Ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarni ertangi kunga umidi, o‘ziga ishonchini oshirishi, muntazam motivatsiya berib borishlari tavsiya etiladi. Ba’zan imkoniyati cheklangan bolalar maktabda va tengdoshlari orasida yakkalanish, kamsitilish holatlariga uchraganda, ota-onalarning o‘zi ruhan tushkunlikka tushib qoladilar. Ammo bunday vaziyatda o‘zlarini tutib olishlari va farzandlarini qo‘llab-quvvatlashga, ruhlantirishga harakat qilishlari kerak.

Yuqorida yangi ota-onalarga bilan hamkorlik asosida husnixat darslarini tashkil qilish tamoyiliga misol tariqasida birgina quyidagi fikrlrni bayon qilamiz. Mahhur ixtirochi, Tomas Edison haqida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uning onasiga farzandini qobiliyatsiz deb ataydi. Biroq uning onasi farzandiga “Sizning o‘g‘lingiz daho. Bu maktab juda kichik, kerakli bilimni beruvchi o‘qituvchilar bu yerda yo‘q.” deb o‘qib beradi. Keyinchalik onasining rag‘batidan keyin Tomas Edison o‘z zamonasining eng buyuk ixtirochilaridan biri bo‘lib yetishadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. X.G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva, G.Mamatova va boshqalar, Husnixat va uni o‘qitish metodikasi, o‘quv qo‘llanma, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, T, 2007.
2. S.Matchonov, Y.Bakiyeva, X.G ‘ulomova va boshqalar.
Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qitish metodikasi, darslik, “Ishonchli hamkor” nashriyoti, T, 2021.
3. Abdullayeva, V. (2023). XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDA TA’LIM JARAYONNI YUZAGA KELISHI VA DARSLIKLER. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 841-843.
4. Abdullayeva, V. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH YO’LLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 888-891

5. Quronovna, V. A. (2023). YUSUF XOS HOJIBING “QUTADG ‘U BILIG” ASAR MATNIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO ‘LLANILISH SINONIMIYALARI. Международный журнал научных исследователей, 3(2)..
6. Quronovna, A. V. (2024). The Sematico-Paradigmatic Structure of Phraseological Units in the Work” Qutadgu Bilig. International Journal of Scientific Trends, 3(5), 27-34.
7. Quronovna, A. V. (2023). YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARINING O‘RGANILISHI HAMDA ASARDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 174-179.
8. Abdullayeva, V. Q. (2023). YUSUF HOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARINING TIL XUSUSIYATLARI, UNDA FRAZEOLOGIK IBORALARNI QO‘LLANILISHI TADQIQI. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 3(2).

Elektron manbalar.

1. https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Husnixat
2. https://www.google.com/search?q=Ushinskiy+haqida&oq=Ushinskiy+haqida+&gs_lcrp=EgZjaHJvbW